

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Бекмуродов Мансур IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI ROLI.....	5
2. Сеитов Азамат, Вахидов Имран РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ОБУЧАЮЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ В КОНТЕКСТЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	16
3. Латипова Нодира, Турсунов Рустам, Кара Шохсанам ВОСПРИЯТИЕ НАСИЛИЯ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ.....	25
4. Karimov Bobir YOSH RAHBARLARDA KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	33
5. Сабирова Умида, Эрбаева Диёра ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ И ГАРМОНИЗАЦИЯ ТРУДОВОЙ И СЕМЕЙНОЙ РОЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	40
6. Zaitov Elyor O'ZINI O'ZI BOSHQARISH INSTITUTLARI TRANSFORMATSIYASINING INSTITUTIONAL ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	46
7. Хидиров Сухроб ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА МИЛЛАТЛАРАРО СТЕРЕОТИПЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ХАВФСИЗЛИККА ТАЪСИРИ (ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТЛАР АСОСИДА)...	54
8. Ixtiyarov Farxod RAQAMLI JAMIYAT FENOMENINING SOTSIOLOGIK ASOSLARI.....	60
9. G'oyibov Elyor O'ZINI O'ZI TAKOMILLASHTIRISH (SELF-MANAGEMENT) OMILINI RIVOJLANISHINING GURUHIY DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	67
10. Ibragimov Murodjon YOSHLAR TASHKILOTLARINING KOMMUNIKATIV FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA IJTIMOIYLAHV OMILINING O'RNI.....	73
11. Husenov Sirojiddin “HAR BIR OILA TADBIRKOR” IJTIMOIY HARAKATIDA MOTIVATSIYA, KO'NIKMA VA MOLIYAVIY KO'MAK TIZIMI.....	82
12. Tadjibayeva Venera BOQIMANDALIK TUSHUNCHASINING SOTSIOLOGIK MAZMUN-MOHİYATI.....	89

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ


ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Ixtiyarov Farxod,

OXU dotsenti, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: farxod.ixtiyarov.77@gmail.com

RAQAMLI JAMIYAT FENOMENINING SOTSIOLOGIK ASOSLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20064362>

ANNOTATSIYA

Maqolada raqamli jamiyatning insoniyat taraqqiyotida yangi bosqichini boshlab berganligi, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat hayotiga keng kirib borib, turli jabhalarda munosabatlarni tubdan o'zgartirayotganligi, u axborot ishlab chiqarish, tarqatish va iste'mol qilish jarayonlarida ustuvorlik kasb etayotganligi bayon etilgan. Shuningdek, inson faoliyati bevosita raqamli muhit bilan bog'liq ekanligi, postindustrial jamiyat sharoitida bilim va axborotning asosiy resursga aylanganligi, zamonaviy jamiyatda moddiy ishlab chiqarishdan ko'ra xizmatlar sohasi, bilim va axborot resurslari ustuvor ahamiyat kasb etib borayotganligi, raqamli jamiyatda axborot texnologiyalari orqali bilimlarni qayta ishlash va tarqatish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin ekanligi haqida fikr yuritiladi. Raqamli jamiyat bevosita "raqamli tengsizlik" ni vujudga keltirib chiqarayotganligi, raqamli jamiyatda "virtual identiklik" tushunchasi shakllanayotganli, inson o'zini nafaqat real hayotda, balki raqamli platformalar orqali ham namoyon etishi haqidagi tahlillar keltirilgan. Raqamli jamiyatda ijtimoiy nazorat mexanizmlarini o'zgarishiga, nazorat davlat institutlaridan, raqamli texnologiyalarga o'tib borayotganligi, videokuzatuv tizimlari, ma'lumotlar bazalari va algoritmlar orqali inson faoliyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, raqamli texnologiyalar, "raqamli tengsizlik", "virtual identiklik", axborot resurslari, ijtimoiy munosabatlar, raqamli platforma, inson kapitali, ijtimoiy kapital.

Ихтияров Фарход,

доцент МУО, доктор философии (PhD) по социологии

e-mail: farxod.ixtiyarov.77@gmail.com

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЯВЛЕНИЯ ЦИФРОВОГО ОБЩЕСТВА

АННОТАЦИЯ

В статье утверждается, что цифровое общество вступило в новый этап развития человечества, что информационно-коммуникационные технологии широко проникают в жизнь общества и радикально меняют отношения в различных аспектах, что они занимают приоритетное место в процессах производства, распространения и потребления информации. Также рассматривается прямая связь человеческой деятельности с цифровой средой, что знания и информация стали основными ресурсами в условиях постиндустриального общества, что сфера услуг, знания и информационные ресурсы приобретают большее значение, чем материальное производство в современном обществе, и что в цифровом обществе возможно расширение возможностей обработки и распространения знаний посредством

информационных технологий. Анализ показывает, что цифровое общество напрямую порождает «цифровое неравенство», что в цифровом обществе формируется концепция «виртуальной идентичности», и что человек выражает себя не только в реальной жизни, но и через цифровые платформы. Анализируются изменения в механизмах социального контроля в цифровом обществе, переход контроля от государственных институтов к цифровым технологиям, системам видеонаблюдения, базам данных и алгоритмам.

Ключевые слова: цифровое общество, цифровые технологии, «цифровое неравенство», «виртуальная идентичность», информационные ресурсы, социальные отношения, цифровая платформа, человеческий капитал, социальный капитал.

Ikhtiyarov Farhod,

Associate professor of AIU, doctor of Philosophy (PhD) in Sociology
e-mail: farhod.ixtiyarov.77@gmail.com

SOCIOLOGICAL BASIS OF THE DIGITAL SOCIETY PHENOMENON

ABSTRACT

The article states that the digital society has begun a new stage in the development of humanity, that information and communication technologies are widely entering the life of society and are radically changing relations in various aspects, that they are taking precedence in the processes of information production, distribution and consumption. It also considers that human activity is directly related to the digital environment, that knowledge and information have become the main resources in the conditions of a post-industrial society, that the service sector, knowledge and information resources are becoming more important than material production in modern society, and that in a digital society it is possible to expand the possibilities of processing and distributing knowledge through information technologies. The analysis presents the fact that the digital society directly creates “digital inequality”, that the concept of “virtual identity” is being formed in a digital society, and that a person expresses himself not only in real life, but also through digital platforms. Changes in social control mechanisms in the digital society, the transition of control from state institutions to digital technologies, video surveillance systems, databases and algorithms are analyzed.

Key words: digital society, digital technologies, “digital inequality”, “virtual identity”, information resources, social relations, digital platform, human capital, social capital.

KIRISH

Raqamli jamiyat tushunchasi insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini ifodalaydi. Bu jarayonda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari jamiyatning barcha sohalariga chuqur kirib borib, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy munosabatlarni tubdan o'zgartirmoqda. Sotsiologik nuqtai nazardan raqamli jamiyat axborot ishlab chiqarish, tarqatish va iste'mol qilish jarayonlari ustuvor ahamiyat kasb etgan, inson faoliyatining asosiy qismi raqamli muhit bilan bog'langan jamiyat shaklidir. Ushbu fenomenning anglashda klassik va zamonaviy sotsiologik nazariyalar muhim o'rin tutadi. Industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tish jarayonida bilim va axborot asosiy resursga aylandi. Bu haqda amerikalik sotsiolog Daniel Bell [1, – B.73] o'zining postindustrial jamiyat nazariyasida ta'kidlab o'tadi. Unga ko'ra, zamonaviy jamiyatda moddiy ishlab chiqarishdan ko'ra xizmatlar sohasi, bilim va axborot resurslari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Raqamli jamiyat esa aynan ushbu jarayonning mantiqiy davomi hisoblanadi, chunki axborot texnologiyalari orqali bilimlarni qayta ishlash va tarqatish imkoniyatlari kengaydi.

METODOLOGIYA

Axborot jamiyati konsepsiyasi ham raqamli jamiyat fenomenini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu borada Manuel Castells tomonidan ishlab chiqilgan “tarmoq jamiyati” nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Uning fikricha, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tuzilmalar tarmoq shaklida tashkil topadi va axborot oqimlari ushbu tarmoqlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga

aylanadi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yangi formatga olib chiqdi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar nafaqat muloqot qiladi, balki iqtisodiy faoliyat yuritadi, ta'lim oladi va siyosiy jarayonlarda ishtirok etadi. Raqamli jamiyatning sotsiologik asoslarini tahlil qilishda texnologiya va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalasi muhim hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirzheyov "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo'ldan borish imkonini beradi. Chunki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik, nodir iste'dod egalari tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q" [2, – B.23], - deb ta'kidlagan edilar.

Texnologik determinizm nazariyasiga ko'ra, texnologiyalar jamiyat taraqqiyotini belgilab beradi. Biroq ijtimoiy konstruktivizm yondashuvi bu fikrga qarshi chiqib, texnologiyalar jamiyat ehtiyojlari va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shakllanishini ta'kidlaydi. Raqamli jamiyatda ushbu ikki yondashuv o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Masalan, sun'iy intellekt texnologiyalari inson ehtiyojlari asosida yaratilgan bo'lsa-da, ular jamiyatda yangi mehnat bozori munosabatlarni shakllantirmoqda.

ASOSIY QISM

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ijtimoiy stratifikatsiyaning yangi ko'rinishlari paydo bo'ldi. Ilgarigi davrlarda jamiyatdagi tengsizlik asosan iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, raqamli jamiyatda "raqamli tengsizlik" tushunchasi paydo bo'ldi. Bu tushuncha axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati, internetga kirish darajasi va raqamli savodxonlik bilan bog'liq farqlarni ifodalaydi. Shahar va qishloq aholisi o'rtasida internetdan foydalanish darajasidagi farqlar ijtimoiy imkoniyatlarning noteng taqsimlanishiga olib keladi. Raqamli jamiyatda kommunikatsiya jarayonlari ham tubdan o'zgarimoqda. Ilgarigi an'anaviy ommaviy axborot vositalari bir tomonlama axborot tarqatishga asoslangan bo'lsa, raqamli muhitda interaktiv muloqot shakllari ustuvorlik kasb etmoqda. Bu jarayonda har bir foydalanuvchi axborot yaratuvchiga aylanadi. Bloggerlar, vloggerlar va kontent yaratuvchilar yangi ijtimoiy guruh sifatida shakllandi. Bu esa jamiyatda axborot manbalari ko'payishiga va fikrlar xilma-xilligining oshishiga olib keldi.

Raqamli jamiyatda madaniy jarayonlar ham transformatsiyaga uchramoqda. Raqamli texnologiyalar milliy madaniyatlarni saqlash va targ'ib qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Jumladan, onlayn muzeylar, virtual kutubxonalar va raqamli arxivlar orqali madaniy meros keng auditoriyaga yetkazilmoqda. Biroq globallashtirish jarayoni natijasida ayrim milliy qadriyatlarining yo'qolib ketish xavfi ham mavjud.

Ijtimoiy institutlar ham raqamli transformatsiya jarayonidan chetda qolmayapti. Ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi kabi sohalarda raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Masalan, elektron hukumat tizimlari orqali fuqarolar davlat xizmatlaridan onlayn tarzda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning ochiqligi va shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli jamiyat fenomenini sotsiologik jihatdan tahlil qilishda inson omili markaziy o'rinni egallaydi. Insonning raqamli muhitdagi xulq-atvori, identifikatsiyasi va ijtimoiy rollari o'zgarimoqda. Onlayn va oflayn hayot o'rtasidagi chegaralar asta-sekin yo'qolib bormoqda. Masalan, insonlar ijtimoiy tarmoqlarda o'z shaxsiy brendini shakllantirib, uni iqtisodiy faoliyatga aylantirmoqda. Raqamli jamiyatda xavfsizlik masalalari ham dolzarb ahamiyatga ega. Kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va axborot xavfsizligi muammolari jamiyat barqarorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi inson huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Raqamli jamiyat fenomenini yanada chuqurroq anglash uchun ijtimoiy makon va vaqt tushunchalarining transformatsiyasiga e'tibor qaratish lozim. Raqamli texnologiyalar insonlarning joy va vaqtga bog'liqligini sezilarli darajada kamaytirdi. Ilgarigi davrlarda ijtimoiy munosabatlar muayyan geografik hududlar bilan cheklangan bo'lsa, raqamli muhitda virtual makon paydo bo'lib, insonlar o'rtasidagi aloqalar global tus oldi. Bu holat ijtimoiy integratsiya jarayonlarini tezlashtirish bilan birga, ayrim hollarda madaniy va ijtimoiy ziddiyatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Raqamli

jamiyatda “virtual identichlik” tushunchasi shakllanmoqda. Inson o‘zini nafaqat real hayotda, balki raqamli platformalar orqali ham namoyon etadi. Bu jarayonda shaxs o‘zining ijtimoiy rollarini qayta ko‘rib chiqadi va yangi identichlik modellarini yaratadi. Ijtimoiy tarmoqlarda inson o‘zini muayyan obrazda taqdim etib, jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa sotsiologik jihatdan “ijtimoiy konstruksiya” tushunchasini yanada dolzarb qiladi.

Raqamli jamiyatning yana bir muhim jihati iqtisodiy munosabatlarning raqamlashuvidir. Elektron tijorat, raqamli to‘lov tizimlari va onlayn xizmatlar iqtisodiyotning yangi shakllarini vujudga keltirdi. Masalan, frilans platformalari orqali insonlar jahon mehnat bozoriga kirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa mehnat munosabatlarining an’anaviy modellarini o‘zgartirib, masofaviy ishlashni ommalashtirdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, raqamli jamiyatda mehnat tushunchasi ham qayta shakllanmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida “platforma iqtisodiyoti” tushunchasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu modelda iqtisodiy faoliyat raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi. Onlayn savdo maydonlari, transport xizmatlari va kontent platformalari orqali insonlar tovar va xizmatlarni osonlik bilan sotib oladi yoki taqdim etadi. Bu esa bozor munosabatlarining yangi shaklini yuzaga keltirdi, ya’ni vositachilarning roli kamayib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar kuchaydi.

Raqamli jamiyatda ta’lim tizimi ham tubdan o‘zgarmoqda. Onlayn ta’lim platformalari, masofaviy o‘qitish texnologiyalari va raqamli ta’lim resurslari bilim olish jarayonini yanada qulay va ommaviy qildi. Talabalar internet orqali dunyodagi yetakchi universitetlar kurslarini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu holat bilimlarning demokratiklashuviga olib kelmoqda, ya’ni har bir inson uchun ta’lim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Raqamli jamiyatda axborot oqimining ortishi inson ongiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot ortiqchaligi (information overload) insonning qaror qabul qilish qobiliyatini murakkablashtirishi mumkin. Bu esa yangi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi, jumladan, feyk axborotlar tarqalishi, manipulyatsiya va axborot urushi kabi holatlar ko‘paymoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli savodxonlik jamiyat a’zolari uchun muhim kompetensiyaga aylanmoqda.

Raqamli jamiyatda ijtimoiy nazorat mexanizmlari ham o‘zgarmoqda. Ilgarigi davrlarda nazorat asosan davlat institutlari orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, hozirgi kunda raqamli texnologiyalar orqali nazorat imkoniyatlari kengaydi. Videokuzatuv tizimlari, ma’lumotlar bazalari va algoritmlar orqali inson faoliyati tahlil qilinadi. Bu holat bir tomondan xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan shaxsiy erkinliklar masalasini dolzarb qiladi. Raqamli jamiyatda ijtimoiy kapital tushunchasi ham yangi mazmun kasb etmoqda. Insonning ijtimoiy tarmoqlardagi aloqalari, obunachilari va faolligi uning ijtimoiy kapitalini belgilaydi. Blogerlar va inflyuenserlar o‘z auditoriyasi orqali iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirga ega bo‘ladi. Bu esa jamiyatda yangi elita qatlamlarining shakllanishiga olib kelmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonida davlatning roli ham o‘zgarmoqda. Raqamli transformatsiya haqidagi fikrlar g‘arb olimlaridan Manuel Castells [3], Erik Brynjolfsson, Andrew McAfee [4], Klaus Schwab [5], George Westerman, Didier Bonnet, Andrew McAfee [6], Jan van Dijk [7], Nicholas Negroponte [8] tadqiqotlarida ko‘proq uchratish mumkin. Davlat raqamli infratuzilmani rivojlantirish, huquqiy bazani shakllantirish va axborot xavfsizligini ta’minlash vazifalarini bajaradi. Raqamli xizmatlar portali orqali fuqarolar davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli jamiyatda global va lokal jarayonlar o‘rtasidagi munosabatlar ham o‘zgarmoqda. Global raqamli platformalar mahalliy bozorlarga kirib kelib, raqobat muhitini kuchaytirmoqda.

Bu holat bir tomondan iqtisodiy o‘sishga turtki bo‘lsa, ikkinchi tomondan mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi chaqiriqlarni yuzaga keltiradi. Inson va texnologiya o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda raqamli gumanizm konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvga ko‘ra, texnologiyalar inson manfaatlariga xizmat qilishi kerak. Raqamli jamiyatni rivojlantirishda inson qadr-qimmati, huquqlari va erkinliklari ustuvor bo‘lishi lozim. Bu esa raqamli transformatsiya jarayonida ijtimoiy mas’uliyatni ta’minlashni talab etadi.

Raqamli jamiyatning shakllanishida institutsional omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda mavjud bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy institutlar raqamli transformatsiya jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Davlat boshqaruvi tizimi, huquqiy me’yorlar, ta’lim muassasalari va bozor

mexanizmlari raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va samarali ishlashini ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi. Institutsional muhit qanchalik barqaror va ochiq bo'lsa, raqamli jamiyatni rivojlantirish imkoniyatlari shunchalik keng bo'ladi. Huquqiy asoslar raqamli jamiyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, elektron tijorat va kiberxavfsizlik sohalarida aniq va samarali qonunchilik bazasi mavjud bo'lishi talab etiladi. Aks holda, raqamli muhitdagi munosabatlar tartibsizlikka uchrashi mumkin. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid qonunlar inson huquqlarini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Raqamli platformalar faoliyatini tartibga solish ham davlat oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston misolida qaraladigan bo'lsa, so'nggi yillarda raqamli jamiyatni shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Elektron hukumat tizimining rivojlantirilishi davlat xizmatlarini aholiga yaqinlashtirish va ularning shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda. Fuqarolar turli hujjatlarni onlayn tarzda olish, arizalar yuborish va davlat organlari bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlashga yordam beradi.

Raqamli jamiyatda madaniy omillar ham katta ahamiyatga ega. Jamiyat a'zolarining texnologiyalarga bo'lgan munosabati, raqamli madaniyat darajasi va innovatsiyalarga ochiqligi raqamli transformatsiyaning samaradorligini belgilaydi. Agar jamiyatda yangi texnologiyalarga nisbatan ishonch past bo'lsa yoki ulardan foydalanish ko'nikmalari yetarli bo'lmasa, raqamli jamiyatni shakllantirish jarayoni sekinlashadi. Shu sababli raqamli savodxonlikni oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Raqamli madaniyat tushunchasi insonlarning raqamli muhitdagi xulq-atvori, axborotdan foydalanish madaniyati va onlayn etika normalarini o'z ichiga oladi. Internetda axborotni tanlash, uni tekshirish va mas'uliyat bilan tarqatish ko'nikmalari raqamli madaniyatning asosiy elementlaridir. Bu holat ayniqsa yoshlar o'rtasida dolzarb bo'lib, ta'lim tizimi orqali ushbu ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Shuni ham aytish kerakki, raqamli jamiyatda ta'lim institutining roli yanada oshmoqda. Ta'lim nafaqat bilim berish, balki raqamli kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonini samarali va interaktiv qiladi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va onlayn kurslar talabalarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli jamiyatda ommaviy axborot vositalari ham transformatsiyaga uchramoqda. An'anaviy media o'rnini raqamli media egallamoqda va axborot tarqatish jarayoni tezlashmoqda. Bu esa jamiyatda axborotning rolini kuchaytiradi. Biroq bu jarayon bilan birga axborotning ishonchliligi masalasi ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Feyk xabarlar va manipulyativ kontent jamiyatda noto'g'ri fikrlar shakllanishiga olib kelishi mumkin. Raqamli jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllari paydo bo'lmoqda. Onlayn jamoalar, virtual guruhlar va raqamli hamjamiyatlar insonlarning ijtimoiy faolligini oshirmoqda. Muayyan qiziqishlarga ega insonlar internet orqali birlashib, umumiy maqsadlar yo'lida harakat qilishi mumkin. Bu holat jamiyatda fuqarolik faolligining yangi ko'rinishlarini shakllantiradi.

Raqamli jamiyatda innovatsiya va tadbirkorlik muhiti ham rivojlanmoqda. Startaplar, IT-kompaniyalar va raqamli xizmatlar bozori iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylanmoqda. O'zbekistonda ham IT-parklar, innovatsion markazlar va startap ekotizimlari rivojlantirilmoqda. Bu esa yoshlar uchun yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Raqamli jamiyatda axborot resurslari strategik ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Ma'lumotlar (data) yangi "resurs" sifatida qaralmoqda va ularni to'g'ri boshqarish iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ratta ma'lumotlar tahlili orqali davlat boshqaruvi, biznes va sog'liqni saqlash sohalarida samaradorlikni oshirish mumkin. Raqamli jamiyatda inson kapitali asosiy omillardan biri hisoblanadi. Malakali mutaxassislar, IT sohasida bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlaydi. Shu sababli ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi raqamli jamiyat talablariga moslashtirilishi zarur. Raqamli jamiyatning sotsiologik asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu jarayon ko'p qirrali va murakkab bo'lib, turli

omillar o‘zaro ta’sirida shakllanadi. Institutsional, madaniy, iqtisodiy va texnologik omillar bir-biri bilan bog‘liq holda rivojlanadi va jamiyat taraqqiyotini belgilaydi.

Raqamli jamiyatning rivojlanishi inson hayotiga keng qamrovli ijtimoiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu ta’sir ijobiy va salbiy jihatlarni o‘z ichiga olib, jamiyatning barcha qatlamlarida sezilmoqda. Inson faoliyatining raqamlashuvi kundalik hayot tarzi, muloqot shakllari va ijtimoiy munosabatlarning mazmuniga o‘zgarish kiritdi. Natijada inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar yangi bosqichga ko‘tarildi. Raqamli muhitda ijtimoiylashuv jarayoni o‘zgarmoqda. Ilgarigi davrlarda ijtimoiylashuv asosan oila, maktab va mahalla kabi an’anaviy institutlar orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, hozirgi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar bu jarayonda muhim o‘rin egallamoqda. Yoshlar ko‘p vaqtlarini onlayn muhitda o‘tkazib, o‘z qarashlari va qadriyatlarini shu yerda shakllantirmoqda. Bu esa yangi avlodning dunyoqarashida global tendensiyalarning ustuvor bo‘lishiga olib kelmoqda. Raqamli jamiyatda ijtimoiy aloqalarning tabiati ham o‘zgarmoqda. Onlayn muloqot tezkor va qulay bo‘lsa-da, u ba’zan yuzaki va qisqa muddatli munosabatlarga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardagi do‘stliklar ko‘p hollarda real hayotdagi munosabatlar darajasiga yetmaydi. Bu esa insonning ijtimoiy ehtiyojlarini to‘liq qondirmasligi mumkin. Shu bilan birga, onlayn muhitda muloqot qilish insonlarga geografik cheklovlersiz aloqa o‘rnatish imkoniyatini ham beradi.

Raqamli jamiyatda psixologik omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish inson ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Doimiy ravishda boshqalar hayotini kuzatish insonda o‘zini taqqoslash, norozilik va stress holatlarini keltirib chiqaradi. Bu esa raqamli muhitdagi “ijtimoiy bosim” tushunchasini shakllantiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar insonlar uchun yangi imkoniyatlar ham yaratadi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun onlayn ta’lim va masofaviy ishlash imkoniyatlari katta ahamiyatga ega. Bu holat ijtimoiy inklyuziyani ta’minlashga xizmat qiladi. Raqamli jamiyatda har bir inson o‘z qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib faoliyat yuritishi mumkin.

Rene Foks ta’kidlagan “kasbiy noaniqlik” va “ijtimoiylashuv” tushunchalari raqamli jamiyat sharoitida yangi mazmun kasb etadi, ya’ni raqamli texnologiyalar tibbiy qaror qabul qilish jarayonida noaniqlikni kamaytirish bilan birga, yangi ijtimoiy va etik muammolarni ham yuzaga keltiradi [9].

Raqamli jamiyatda ijtimoiy institutlarning transformatsiyasi yanada chuqurlashmoqda. Oila institutida ham o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Onlayn muloqot vositalari oila a’zolari o‘rtasidagi aloqalarni saqlashga yordam bersa-da, ba’zan real muloqotning kamayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli muhit orqali yangi munosabatlar shakllanib, nikoh va oila qurish jarayonlari ham o‘zgarmoqda. Diniy va ma’naviy hayotda ham raqamli texnologiyalarning ta’siri sezilmoqda. Diniy bilimlarni onlayn tarzda o‘rganish, ma’ruzalarni internet orqali tinglash va diniy jamoalar bilan raqamli aloqa o‘rnatish imkoniyatlari kengaydi. Bu holat diniy ta’limning ommalashuviga xizmat qiladi. Internetdagi noto‘g‘ri yoki soxta diniy ma’lumotlar tarqalishi xavfi ham mavjud bo‘lib, bu sohada tanqidiy fikrlash muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Raqamli jamiyatda til va kommunikatsiya madaniyati ham o‘zgarmoqda. Qisqartmalar, emodzilar va vizual belgilar orqali muloqot qilish kengaymoqda. Bu esa tilning rivojlanishiga yangi yo‘nalishlar olib kelmoqda. Biroq ayrim hollarda bu jarayon tilning soddalashishi va adabiy me’yorlardan chekinishga ham sabab bo‘lishi mumkin. Raqamli jamiyatda bilimlarning tarqalish tezligi juda yuqori bo‘lgani sababli innovatsiyalar ham tez rivojlanmoqda. Ilmiy tadqiqotlar, texnologik ixtirolar va yangi g‘oyalar qisqa vaqt ichida butun dunyoga tarqaladi. Bu esa ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtiradi va jamiyat rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Sotsiolog-olim M.Bekmurodov konsepsiyasiga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti axborot almashinuvi va raqamli texnologiyalar asosida qayta tashkil topib, boshqaruvning yangi – innovatsion modellarini shakllantiradi [10].

Raqamli jamiyatda axborotning ishonchligi masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Feyk xabarlar, dezinformatsiya va manipulyatsiya jamiyatda noto‘g‘ri fikr shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli axborotni tekshirish, manbalarni solishtirish va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalari jamiyat a’zolari uchun zarur hisoblanadi.

Raqamli jamiyatda boshqaruv tizimlari ham o‘zgarmoqda. Elektron hukumat, raqamli xizmatlar va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlari davlat boshqaruvining samaradorligini

oshirmoqda. Bu esa jamiyatda shaffoflik va ochiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv tizimlarida inson omilini saqlab qolish ham muhimdir.

Raqamli jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Texnologik rivojlanish bilan birga ijtimoiy, madaniy va axloqiy omillarni ham hisobga olish zarur. Bu esa jamiyatning barqaror va muvozanatli rivojlanishini ta'minlaydi. Raqamli jamiyat fenomenining sotsiologik asoslarini tahlil qilish orqali shu xulosaga kelish mumkinki, bu jarayon jamiyat taraqqiyotining tabiiy bosqichi bo'lib, u inson hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonni ilmiy jihatdan o'rganish va to'g'ri boshqarish orqali uning ijobiy natijalarini kuchaytirish va salbiy oqibatlarini kamaytirish mumkin.

Adabiyotlar/Literatura/ References:

1. Daniel Bell. *The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting*. Basic Books. New York City, 1973.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси. 2023 йил 23-б.
3. Manuel Castells. *The Rise of the Network Society*. – Oxford: Blackwell Publishers, 1996.
4. Erik Brynjolfsson, Andrew McAfee. *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. – New York City: W. W. Norton & Company, 2014.
5. Klaus Schwab. *The Fourth Industrial Revolution*. – Geneva: World Economic Forum, 2016.
6. George Westerman, Didier Bonnet, Andrew McAfee. *Leading Digital: Turning Technology into Business Transformation*. – Boston: Harvard Business Review Press, 2014.
7. Jan van Dijk. *The Network Society*. – London: SAGE Publications, 2006.
8. Nicholas Negroponte. *Being Digital*. – New York City: Alfred A. Knopf, 1995.
9. Фокс Renée С. (1989). Социология медицины. Пирсон. ISBN 0138205078
10. Бекмуродов М. *Замонавий бошқарув социологияси. Монография*. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2020. – 436 б.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000